



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466
9 7721 8114 6004



ISSN 2181-6875
9 7721 8168 70021

3/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUKHARA
DAWLAT
UNIVERSITETI

BUKHARA DAWLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



3/2023

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 3

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'ZR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**
ANIQ VA TABIIY FANLAR * EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И**
ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A.	G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish	3
Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Olimov X.K.	Sh.A., Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии (s_{nn}) ^{1/2} =62-5020 GeV	8
Masharipov S. I.	Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections	12
Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallokov F.K., Narzullaeva Z.M.	Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS ₂	16
Xayitova X.G.,	Ikkinchi tartibli matritsaviy model operatorning ba"zi spektral xossalari	23
Aliyeva T.A.	Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region	29
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Asadov T.H.	O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiati xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)	37
Azimov I.M.	Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati	42
Bozorova R.Sh.	Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi	48
Davlatova M.H.	Ikkilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar turlari xususida	55
Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R.	Lingvomadaniyatshunosliknin g fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar	60
Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V.	Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o,rni va ahamiyati	64
Xидирова Г.Х.	Замонавий терминологияда терминнинг объектив	69

	таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари	
Hamroyeva N.N.	Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o„rni va kommunikativ strategiyalar	76
Ismoilova D.R.	Language crimes in English language	81
Narzullayeva F.O.	Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o„rganilishi	85
Rabieva M.G’.	Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida	90
Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh. Uzakova L.A.	Kooperatsiya tamoyilining pragmalingvistikadagi o„rni O„zbek va ingliz tillarida to„y bilan bog„liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to„y marosimimlarini o„rganish	94 99
Xolova Sh.D.	“Avoir” fe“li ishtirokidagi inson his-tuyg“ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o„ziga xosliklari	103
Xudoyev S.S.	O„zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi	108
Xusainova Z.Y.	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi	113
Yusupova D.Y.	Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva	120
Одилова Г.К.	Болалар адабиетида глюттоник дискурс таржимасида услуб ва маъно адекватлиги	126
Жумаев А.А.	Ўзбек ва немис бадий матнларида орнитопоэтонимларнинг маъно оттенкалари	132
Murtazoyev O.N.	Intertekstuallikning tilshunoslikda qo„llanilishi	136
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
O„rayeva D.S., Adizova O.I. Eshonqulova G.T.	Folklore in the context of modern culture Badiiy asarda ma“noni implicit ifodalashning kommunikativ strategiyalari	140 149
Курбанов С.С.	“Ўткан кунлар” романида оқил оталар образи талқини	154

Muxammadova M.M.	"Ko„hkan" taxallusi bilan she"rlar yozgan Shayboniy hukmdor talqini	158
Ganieva O.Kh., Rajabova Z.T.	The concept of the motif of loneliness in 20th century American literature	163
Sultonova D.S.	Ingliz adabiyotida kriminal mavzudagi prozaik asarlar taraqqiyoti	167
Umarov U.A.	Characteristic features of hero archetype in the example of Harry Potter	171
Umurova N.R.	"Iqronoma" va islom falsafasi	176
Urmonova N.M.	The deontology of translation and interpretation	181
Babayev O.A.	Jaloliddin Rumi asarlarining arab tiliga qilingan tarjimalarda g"arb tarjimalari ta"siri	186
Бахронова М.А.	Бадиий адабиётда касалликлар рамзи	191
Бокарева М.А.	Пути развития русского реализма рубежа хх-ххi веков: от соцреализма до экзистенциального постреализма	196
Жамилова Б.С.	Ўзбек ва турк болалар адабиётдаги муштарак туйғулар	203
Nuritdinova Sh.S.	Hamza Imonberdiyev she"riyatida ramziylik va erk motivi ifodasi	210
Ражабова Р.З., Ражабова Г.З.	Эртак жанри стилизациясининг асослари ва тараққиёт хусусиятлари	215
Usmonova Z.H.	Rey Bredberining "Marsga hujum" ("Марсианские хроники") asarida tarjima xususiyatlari va tarjimon uslubi	221
Sadigova N.E.	Romanticism of Byron and his work "Cain"	227
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Maqsudova N.U.	Ziyovuddin Haziniy she"rlarining manbalari	233
"NAVOIY GULSHANI"		
Ражабова М.Б.	Риёву ужбу ҳасад дафъин эт	237
...		
PEDAGOGIKA *** ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS		
Bahronova B.B.	Abdurauf Fitratning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari	240
TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY		
Muminov D.A.	Samarqandga evakuatsiya qilingan sanoat korxonolari va	244

Raxmatulloyev M.X.	ularning faoliyati Mustaqillik yillarida O„zbekistonda ommaviy axborot vositalarining tarixi va rivojlanish bosqichlari	249
Xakimov J.N.	Buxoro amirligi va Rossiya imperyasining savdo-sotiq munosabatlarining yo“lga qo“yilishi	253

LINGUISTICS

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2023/3 (97) 37

UO„K: 81

O“ZBEK TILIDAGI MURAKKAB TARKIBLI AYRIM AFFIKSLARNING TABIATI XUSUSIDA (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)

Asadov To“lqin Hamroyevich,

Buxoro davlat universiteti,

o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrası dotsenti, f.f.n.

thasadov@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tili grammatikasida munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan, ko‘pincha ravishga nisbat beriladigan, tarkiban va mazmunan murakkab bo‘lgan -gacha, -lab -lay/layin, -(i)n/un -chan/chang -day/dek, -namo, -simon kabi murakkab affikslar, bu affikslarning so‘z yasashdagi imkoniyati, mazkur affiksli so‘zlar struktur-semantik tarkibi atroflicha tadqiq etilgan. Har bir nazariy fikr misollar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, so‘z yasovchi affiks, murakkab tarkibli affiks, affiksning so‘zga birika olish darajasi, unumli va unumsiz affiks, murakkab shakl, yasama so‘z, yasama so‘z ma‘nosi, so‘z tarkibi.

Аннотация: В этой статье рассмотрены сложные аффиксы -gacha, -lab -lay/layin, -(i)n/un -chan/chang -day/dek, -namo, -simon, вызывающие дискуссии в грамматике узбекского языка, часто относимые к наречию, сложным словам, досконально изучены возможности этих аффиксов в построении предложений, структурно-семантический состав слов с этими аффиксами. Каждое теоретическое положение подробно доказано и прокомментировано посредством примеров.

Ключевые слова: словообразование, словообразовательный аффикс, аффикс сложного содержания, степень сочетания аффикса со словом, продуктивный и непродуктивный аффикс, сложная форма, сложнообразованное слово, значение сложнообразованного слова, структура слова.

Annotation: In this article, complex affixes such as -gacha, -lab, -lay/layin, -(i)n/un, chan/chang, -day/dek, -namo, -simon which are often the cause of controversies in the grammar of the terms of structure and content the possibility of these affixes in word formation and the structural-semantic composition, of word with this affix researched. Each theoretical point is amply demonstrated and reacted with examples.

Key words: word formation, word forming affix, affix with complex content, degree of attachment of the affix to word, productive and unproductive affixes complex form, fictitious word, derivative word meaning, word structure.

Kirish. Manbalarda ravishga xos affiks sifatida baholanadigan bir qator shakllar ham mavjudki, o‘zbek tilshunosligida o‘ta ziddiyatli talqinga ega. Bunday shakllar bugungi kunda ravish yasash xususiyatini yo‘qotgan (arxaiklashgan) yoki o‘z davrida ham ravishga yot affiks bo‘lgan. Muayyan bir yasama so‘zning semantik va sintaktik tabiatiga tayanib (ish-harakat belgisini

bildirishi va hol vazifasida kelishi tabiatidan kelib chiqib), ish ko'rish bir qator affikslarning sun'iy tarzda ravish guruhida o'rganilishiga yo'l ochib berdi. Bu qatorga alla- (allamahol, allavaqat), -(i)n (qishin-yozin, ostin-ustun, birin-ketin), -a (shartta, tappa, guppa), bar- (bartaraf, barvaqt, barhayot), be- (beto'xtov, bevosita, bevaj), -vor (umidvor), -gacha/kacha/qacha(uygacha, kechgacha, kuzgacha), day/dek (yashinday, o'g'riday, bahordek), -lay/layin (butunlay – butunlayin, yoshlay – yoshlayin), -ligicha (xomligicha, butunligicha), -lab (ertalab, ko'plab, tonglab), -chang (kovushchang, mahsichan, ko'ylakchang), -namo (uyalgannamo, olimnamo, oliftanamo), -simon (xafasimon, uyalgansimon, hazilsimon) kabi. Mazkur affikslar bilan yuzaga kelgan so'zlarning fe'llar bilan ham birika olish qobiliyatidan kelib chiqib so'z turkumlari bo'yicha tasniflash (bir tomonlama baholash, ya'ni so'zlarni turkumlashda semantik, sintaktik mezonga tayanib ish tutish) fanda ravish bilan bog'liq muammolarning bir qismi bo'lib yuzaga chiqdi. Ravish so'z turkumining chegarasini belgilash masalasida ravish bilan bog'liq to'g'ri tasnif asosi – ravishlarni belgilashda morfologik tamoyil yetakchi qilib olinishi lozimligiga e'tibor qaratilmadi.

Asosiy qism. Tahlilga tortilgan bu kabi affikslarning ravishga munosabati masalasida dastlab quyidagi umumlashma fikrni ilgari surish mumkin:

1) ravishga batamom aloqasi bo'lmagan affikslar: alla-, -a, bar-, be-, -gacha/kacha/qacha, -vor, -day/dek, -namo, -simon, -in/un

2) ma'lum vaqt ravish yasashda ishtirok etib, bugungi kunda unumdorligini yo'qotgan affikslar: -lab, -lay/layin, -chang, -ligicha

Birinchi tur affikslardan alla-, -a, bar-, be-, -vor shakllarining ravishga aloqasi yo'qligini izohlashga hojat yo'q, nazarimizda. Faqatgina bu tarkibdan -gacha/kacha/qacha, -lab, -layin, -chang, -day/dek, -namo, -simon, -in/un affikslari ravish shakli sifatida nisbatan ko'proq tasnif va tavsif etilgani sababli ayrim fikrlarni aytib o'tishni, alohida kuzatishni ma'qul ko'rdik.

-gacha/kacha/qacha affiksi. -gacha va uning variantlari -kacha, -qacha affiksining ravish yasovchiga nisbat berilishi[11,532] ham mazkur murakkab shaklning o'rin va paytga munosabat bildiradi olishida ko'rinadi.

O'zbek tilshunosligida -gacha affiks bir qancha muhokamalarga sabab bo'lib keldi. Bu affiks bo'yicha quyidagicha qarashlar ilgari surilgan:

a) ravish yasovchi affiks;

b) chegara kelishigi shakli[5,33-39].

c) -ga va -cha (yuklama) affikslar ketma-ketligidagi shakllar[8,39-40].

Tilshunos olim A.Hojiyev maxsus kuzatuvlaridan birida -gacha affiksi haqida aytilgan fikrlarni umumlashtiradi hamda o'z qarashini bayon etadi. A.Hojiyev -gacha affiksining semantik-grammatik tabiatini, u haqidagi fikrlarni olti betda sharhlab, yakuniy xulosani quyidagicha yozadi: –Birinchiidan, hozirgi o'zbek tilidagi uygacha, hozirgacha, bolalargacha kabilardagi -gacha affiksi yaxlitligicha bir affiks – chegara ma'nosini ifodalovchi forma yasovchi affiks, shu formaning o'zi esa chegara formasi hisoblanadi. Ikkinchidan, -gacha affiksi yordamida yasaluvchi shakl kategorial forma hisoblanadi va o'z xususiyatiga ko'ra kelishik formalari qatoriga kiradi (chegara kelishigi formasi bo'ladi)[2,48].

Bir dalil ahamiyatliki, birinchiidan, -gacha affiksining ot so'zlarga cheklanmagan miqdorda birikishi (jumladan: tog'chacha, devorgacha, qirgacha, gulgacha va b.) mazkur affiksning so'z yasovchilik xususiyatini inkor etadi. Ikkinchiidan, -gacha affiksining –-cha|| qismi zamon/makon kelishiklaridan faqatgina -ga jo'nalish kelishigi affiksi bilan birga kela oladi. Bu esa -gacha affiksining allaqachon murakkab shakl bo'lib ulgurganligiga ishora qiladi.

-lab affiksi. Mazkur affiks ham murakkab bo'lib, -la+b (fe'l yasovchi va ravishdosh) shakllarining qo'shilishidan yuzaga kelgan. Lug'atlarda -lab affiksi bilan hosil bo'lgan yuzlab, pachkalab, yondamalab, chakanalab, donalab, tonnalab, haftalab, pag'alab, sekundlab, pudlab, ataylab, oylab, bo'ylab, chelaklab, amallab, yillab, oqshomlab, so'mlab, tiyinlab, vagonlab, havolab, ko'plab, gektarlab, saharlab, sentinerlab, paqirlab, litrlab, navbatlab, egatlab, soatlab, minutlab, obkashlab, qulochkashlab, oyoqlab, seriyalab, uyalab, kabi 40ga yaqin so'z mavjud[7,35].

Ta'kidlash lozimki, -lab affiksli bu kabi so'zlar ravish so'z turkumi tabiatiga mos, ya'ni morfologik o'zgarmasligi bilan ravish so'zlar tarkibidan o'rin ola biladi. Qolaversa, -lab affiksi bilan hosil bo'lgan so'zlar qatori bu kabilar bilan cheklanib qolmaydi. O'zbek tili leksik qatlami rivoji o'laroq nutqimizda etaklab (paxta termoq), mashinalab (tashimoq), kamazlab (tuproq tashimoq), samolyotlab (yordam ko'rsatmoq) kabilar ham qo'llanadi. Bular til rivojining nisbatan keyingi

davriga, aniqrog'i, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo'llanila boshlandi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, -lab affiks unumli so'z yasovchi hisoblanmaydi. Buning o'ziga yarasha sababi bor, ya'ni -lab affiksining so'z yasashiga keng –sharoit|| mavjud emas – –lab|| uchun asos bo'luvchi qism (jumladan: samolyot, vagon, kamaz) har zamonda ham paydo bo'lavermaydi. Bu bilan -lab affiksining rivoji (yashovchanligi) ot so'z turkumiga oid so'zlar bilan bog'liq deb xulosa chiqara olamiz.

-lay/layin, -(i)n/un affikslari. Ishimizning –Ravishlarga xos tarixiy affikslar tadqiqi va rivojil|| bandida mazkur affikslarning tarixiy tabiatiga to'xtalib o'tganmiz. Mazkur affikslar bugungi kunda ravish yasashga xizmat qilmayapti. -(i)n affiksi bilan yuzaga kelgan qishin-yozin, birin- ketin va b. so'zlar o'z davrida ham ravish yasovchi affiks bo'lmagan. Qolaversa, bu kabi so'zlar juda oz miqdorda.

Qadimda -lay/layin affikslari bilan ko'plab so'zlar yasalgani va bu affikslar ma'no-mazmuni, vazifasiga ko'ra -day/dek affikslariga mos keliganligi aytiladi[6,169]. Vaqt o'tib bugungi kunda - lay/layin affiksi faoliyatining o'ta chegaralanganligini tilimizda davr bilan bog'li ravishda -day/dek shakli paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin. -day/dek affiksi faoliyatining oshishi, so'zlarga keng miqdorda birika olish imkoniyati -lay/layin affiksi funksiyasini cheklab keldi. Natijada -lay/layin affiksi unumsiz ravish yasovchi affiksga aylandi.

-chan/chang affikslari. Bu shakl bilan hosil bo'lgan so'zlar ham u qadar ko'p emas. O'zbek tili affikslari tasnifi va tavsifiga bag'ishlangan ishlarda -chan hamda -chang shakllarining differensiyasi sust. Mazkur affikslarning qo'llanishida ham sifat yasovchi -li va ot yasovchi -lik affikslarida uchraydigan holat kuzatiladi. Ba'zida ularning qo'llanishida har xillik kuzatilishini izohlash shart bo'lmasa kerak. Manbalarda chan va -chang affikslari variant shakli sifatida izohlanib ketaveriladi. Hatto yaqin o'n yillardagi tadqiqotlarda ham -chang affiksi -chan affiksining ko'rinishi sifatida beriladi[11,589].

–O'zbek tilining grammatikasi|| asarining –kammahsul sifat yasovchilar|| bandida -chan affiksi haqida so'z boradi. Manbada yozilishicha, -chan affiksi sifat yasovchi sanalib, asosdan anglashilgan predmet, hodisa tushunchalariga ortiqlik, faollik kabi belgi ma'nolarini beradi. Kitobda aytilishicha, -chan bilan parallel ravishda -chang affiksi ham ishlatiladi: *ko'ngilchan – ko'ngilchang , ishtonchang – ishtonchan, uyatchang – uyatchan, xayolchang – xayolchan* kabi[10,282]. Manbaning –ravish yasalishi|| bandida bu qo'shimchanning har ikkala varianti ham o'z sharhiga ega emas.

–O'zbek tili morfem lug'ati||da ham -chan affiksiga izohlanadi. Lug'atning affikslar tabiati haqida nazariy fikrlar bayon etilgan ILOVA qismida *yashovchan, o'ychan, bo'ychan* kabi birinchi guruh so'zlari ham, *ko'ylakchan, maykachan* kabi ikkinchi guruh so'zlari ham -chan affiksi bilan beriladi[12,443].

A.Hojiyevning –O'zbek tili so'z yasalishi|| kitobida boshqacha holat kuzatiladi. -chan affiksi sifat yasalishi, -chang affiksi ravish yasalishi bo'limida sharhlanadi. Unga ko'ra, -chan otlarga qo'shilib shaxs yoki predmetning yasovchi asosdan anglashilgan ish, harakat-holatga moyillik belgisini, uning yasovchi asosdan anglashilgan ish, harakat-holatni bajarish qobiliyatiga, xususiyatiga ega ekanini bildiruvchi sifatlar[3,68], -chang esa –shaxsning faqat asosdan anglashilgan kiyimda ekanlik|| holatini bildiruvchi ravish (kovushchan, mahsichan kabi so'zlar) yasaydi[3,96]. Olim fikriga ko'ra, kiyim-bosh otlaridan -chang affiksi orqali so'z yasash lozim.

Ko'rinadiki, mazkur affikslarning yagona shakli haqida bir to'xtamga kelinmagan. Bu esa ayrim tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Amaldagi –O'zbek tilining izohli lug'ati|| tahlili ko'rsatdiki, kiyim-bosh otlari (*ishtonchang* so'zi bundan mustasno) -chan affiksi orqali (mahsichan, ko'ylakchan, maykachan, yaktakchan, sarpoychan) berilgan.

–O'zbek tilining izohli lug'ati|| ning 5-jildi so'ngida – –So'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning izohli illyustrativ ko'rsatkichi|| qismida ham –chan affiksining grammatik tabiati, so'z yasashdagi ma'no-ifodasi izohlanganligiga guvoh bo'lamiz, -chang affiksi manbada –chan|| ning varianti sifatida qaralgan[11,589].

Mazkur shakllar haqidagi fikr xulosasi sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

a) -chan va -chang affikslari shakliy belgisi haqida yagona xulosaga kelish fan oldidagi vazifalardan biri sanaladi;

b) -chang affiksining yuzaga kelishi -chan shakli orqali bog'liq bo'lib, ot oldi va fe'l oldi so'zlarni shartli farqlash hamda ifodada ma'no kuchaytirish maqsadi bilan (uslubiyat talabiga ko'ra) paydo bo'lgan;

c) har ikkala shakl ham belgi ifodasi uchun qo'llanadi, shuning uchun ularni bir umumiy shakl –chan|| shaklida sifat turkumida yasovchi affiks tarzida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

-day/dek affiksi. Bu grammatik shakllar ham munozarali talqinga ega. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda mazkur affiks ravish yasovchi sifatida talqin etiladi. ||O'zbek tili grammatikasi|| asarida ||ot, sifat, olmosh va boshqa turkumdagi so'zlarga qo'shilib, ravish yasashi, bunda ma'no jihatdan taqlid va o'xshatish ma'nosini ifoda etishi (askarday, yashinday, burgutdek, chirmovuqday), -day/dek affiksining fonetik varianti sifatida -oq, -dog', -dak, -daka, -daqa, -dayin, -aqa (shundoq, mundog', sizdaka, shundaqa, qushdayin, unaqa, bunaqa) kabilar ham qo'llanishi aytiladi [10,531]. Mazkur manbaning ||morfologik usul||da sifat yasalishi bandida -day/dek affiksining sifat yasashi haqida ham so'z boradi[10,279]. Ba'zi manbalarda -day/dek affiksining otga xos shakl ekanligi ham keng izohlanadi.

||O'zbek tilining izohli lug'ati||ning qo'shimchalar tavsifiga bag'ishlangan qismida ham -day/dek affiksining ham sifat, ham ravish yasay olishi bayon etiladi [11,577]. Kuzatishlar -day/dek affiksining so'z turkumlariga munosabatida yagona fikr mavjud emasligini ko'rsatib turadi. Ko'pgina til hodisalarida uchragani kabi mazkur affiks izohida ham zo'rma-zo'rakilik kuzatiladi. Aslida -day/dek affiksining ham ot oldi, ham fe'l oldi belgi semali so'zlar hosil qila olish imkoniyati (Jumladan: *bahordek ob-havo, boladay qariya; devday ishlamoq, vatanparvarlardek jang qilmoq*) mazkur shaklni sifat va ravish tarkibiga o'rganilishiga sabab bo'lgan.

Yaqin o'n yillarda yaratilgan tadqiqotlarda shu kabi ziddiyatlarning oldini olish, bu shakl haqida bir yechimga kelish maqsadida -day/dek affiksiga ko'makchi affiks deb qarash ommalashmoqda. Ko'p munozaralarga sabab bo'lgan -day/dek affiksi qo'shimchasimon ko'makchi tarzida izohlanmoqda[9,261].

-day/dek affiksi bir qator so'z va affikslar bilan sinonimlikka kirisha oladi. Masalan:

a) -day/dek – kabi, singari, yang'lig', misoli, ko'makchilari; b) -day/dek – go'yo, go'yoki, xuddi, naq, yuklamalari; d) -day/dek – -larcha ravish yasovchi affiksi; e) -day/dek – -cha ravish yasovchi affiksi; f) - day/dek – -chasiga ravish yasovchi affiksi; g) -day/dek – -ona ravish yasovchi affiksi; h) -day/dek – -namo sifat yasovchi affiksi; i) -day/dek – -simon ravish yasovchi affiksi.

Misollarni kuzatamiz: *osmonday – osmon kabi, bahorday – go'yo bahor, yigitlardek – yigitlarcha, otaday – otalarcha, arslonday – arslonchasiga, mardlarday – mardona, hazillashganday – hazillashgannamo, uyalganday – uyalgansimon* kabi.

Umuman, -day/dek shakllari –affiks ko'makchi|| tarzida baholanib, umumiy xulosaga kelinishi bir-biriga zid ko'pgina fikrlarning bartaraf etilishiga ham yordam beradi. Qolaversa, mazkur affiksning tabiati so'z yasovchi bo'la olmasligini ham ko'rsatadi. Buning dalili sifatida quyidagilarni aytish mumkin: a) -day/dek har qanday so'zga – ot va qisman sifat, sifatdosh, harakat nomiga birdek qo'shilib ketaveradi: onalarday, gulday, Amudaryoday, o'quvchiday, tuyg'uday, yaxshiday, yomonday, o'qiganday, borishday va h.k. b) -day/dek ba'zi paytlarda belgisiz ham qo'llana oladi: 1. Tosh qotirgan yo'llarni ayoz. 2. Oy borib omon kel. Shu kabi dalillarning o'ziyoq mazkur affiksning so'z yasovchilik tabiatini rad etadi.

-day/dek affiksi ayrim so'zlar tarkibida, xususan, ravishlar tarkibida yaxlitlanib qolgan holda uchraydi. Bu affiksning so'zga yaxlitlanib, bir butun holga kelishi (soddalanishi)da ikki holat kuzatiladi:

a) tublashgan so'zlar; jinday, jo'jabirday, qittay, arziguday, aytganday, o'lguday, davongirday;

b) tublashayotgan so'zlar: shunday, bunday, unday, o'shanday.

-namo, -simon affikslari. Har ikkala affiks ham o'zlashma sanaladi. –namo fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, –tashqi ko'rinish, qiyofa; ko'rsatuvchi, namoyon qiluvchi|| kabi ma'no ifodasiga ega [11,586]. –simon affiksi esa asosan otlarga qo'shilib, –shu asosga o'xshash|| ma'nosidagi xususiyat, shakl bildiruvchi so'z yasaydi [11,588].

Manbalarda -namo, -simon affikslari ham sifat [10,284], ham ravish yasovchi [10,532] shakl sifatida qaraladi.

–O'zbek tili so'z yasalishi|| kitobida -namo va -simon affikslariga faqat sifat yasovchi deb qaralganligiga guvoh bo'lamiz. A.Hojiyev -namo affiksini shunday ta'riflaydi: –Bu affiks [-namo] yordamida yasalgan oz miqdordagi sifatlar shaxsning asosdan anglashilgan narsa-xususiyat belgisiga egaligini bildiradi [3,75]||. Manbada -simon affiksi haqida quyidagicha fikr bildiriladi: –simon predmetning yasovchi asosdan anglashilgan narsaga o'xshashligini, shu jihatdan bo'lgan belgisini bildiradi; odamsimon, kumushsimon, sharsimon, gazzsimon, qalqonsimon, va b. kabi., bu affiks o'z funksiyasini to'xtatgan emas. Ko'rib o'tilgan ma'noli sifat yasash talabi tug'ilsa, -

simon affiksi yordamida shunday so'z yasash mumkin bo'ladi [3,69]. ||

-simon affiksi narsa-buyumlarga qo'shilib yangi so'z hosil qila olishi tufayli mazkur affiksning imkoniyati –namo affiksiga nisbatan kengroq. Shu bilan birga, -simon va -namo affikslari ko'pgina so'zlarda o'zaro sinonim ham bo'loladi; maymunsimon–maymunnamo, ayolsimon–ayolnamo, kumushsimon – kumushnamo va h.k. -simon affiksi ko'pincha tashqi ko'rinishga, -namo affiksi esa kishining holati, xususiyatiga o'xshashlikni bildiradi.

Keyingi davr tilshunosligi kuzatuvlari asosida yozilgan manbalarda -namo, -simon affikslari bilan hosil bo'lgan so'zlar muayyan bir so'z yasash qolipi hosilalari bo'la olishi aytiladi. Oliy ta'lim talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan –Hozirgi o'zbek adabiy tili|| kitobida mazkur affikslar bilan bog'liq so'z yasash qoliplari sifatida –sifat+namo= biror shaxsning asos bildirgan xarakter-xususiyat belgisiga ega ekanligini bildiruvchi sifat|| hamda –ot+simon=asosdan anglashilgan narsaga o'xshashlik belgisini bildiruvchi sifat|| tarzida izoh beriladi [9,233].

-simon affiksi orqali belgi ifodalovchi so'zlarning paydo bo'lishi birmuncha faol. -simon affiksi ko'plab nutqiy yasama so'zlarni vujudga keltira oladi: *qutisimon, arrasimon, qovurg'asimon, halqasimon, g'altaksimon, ombursimon, trubasimon, sharsimon, butasimon, egarsimon* va h.k.. Mazkur affiks ayrim fan terminlarini yuzaga keltirishda ham faol affiks sanaladi [4,145]. -simon affiksi bugungi kun badiiy parchalarda ham nisbatan faol qo'llanganligiga[1,38] guvoh bo'lamiz: *Unutildi o'tgan ishqsimon/ Daraxtlarning yupun barglari.* (Z.Mirzo)

O'zbek tili so'z yasashida -simon, -namo affikslariga nisbatan –ravish yasovchi affiks|| qabilidagi fikrlarning kuzatilishiga sabab shundaki, mazkur affikslar bilan yasalgan so'zlar ba'zida ish-harakat belgisini bildirib, hol vazifasida kela oladi: *maymunnamo harakat qilmoq, pahlavonnamo kurashmoq* kabi. Shu tufayli bu shakllar ravish yasovchi affiks tarzida baholangan.

Xulosa. Xullas, ravish so'z turkumining ziddiyatli talqini ayrim affikslarning asossiz ravishda, sun'iy tarzda mazkur so'z turkumiga –tirkalishi|| bilan ham bog'liq. Bunga sabab bu affikslar hosil qilgan so'zlarning ma'no-vazifasiga ko'ra ravishlarga teng kelishidir. Payt, o'rin, holat, miqdor ma'no ifodali har qanday so'zni nutq sharoitida hol bo'lak vazifasida kelishiga ko'ra (sintaktik tabiatiga ko'ra) baho berish ushbu so'z turkumini sun'iy ravishda kengaytirib yubordi. Vaholanki, ravish semantik, sintaktik jihatdan boshqa mustaqil so'zlarga teng kelsa-da, morfologik o'zgarmasligi, darajalanmasligi bilan alohidalik kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Asadov T., Mardonova S. *O'zbek tilida faol so'z yasaliishi va muallif neologizmlari. Monografiya. GlobeEdit. 2021.*
2. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясадиши. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясадиши. – Т.: Ўқитувчи, 1989.
4. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясадиши тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007.
5. Неъматов Ҳ. Чегара келишиги. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 4-сон. 1971. 33-39-б.
6. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. – Т.: Фан, 1989.
7. Қўнғуров У., Тихонов А. Ўзбек тилининг терс луғати. – С., 1968.
8. Раҳматуллаев Ш. От лексемага қўшиладиган баъзи форма ясовчилар. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2-сон. 1975. 39-40-б.
9. Sayfullayeva R. va b. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* – Т.: *Fan va texnologiyalar.* 2010.
10. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Т.: Фан, 1975.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.
12. Фуломов А. ва б. Ўзбек тили морфем луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1977.